XALQ DEPUTATLARI KOGON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 11-noyabr VII-18-144-2-208-K/25 Kogon shahar

Kogon shahridagi Geografik obyekt (qabriston)ga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining o‘rinbosari, geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi raisi T.M.Abdullayevning 2025-yil 6-oktabrdagi 05-19-17298-sonli ekspert xulosasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Kogon shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geofrafik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 6-oktabrdagi 05-19-17298-sonli Ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kogon shahridagi Geografik obyekt (qabriston)ga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ilovaga muvofiq ma’qullansin.
3. Shahar qurilish bo‘limi boshlig‘i (M.Xolov), Davlat kadastrlar palatasi Kogon shahar filiali boshlig‘i (A.Abdullayev), shahar soliq inspektsiyasi boshlig‘i (K.Axmadova), shahar statistika bo‘limi boshlig‘i (J.A’zamov), shahar davlat xizmatlari markazi rahbari (J.Kamalov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda Qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan ziyoratgoh, qabriston, istirohat bog‘lari nomlari bo‘yicha ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bo‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.
4. “Kogon hayoti” gazetasi tahriririyati (Z.Xalilova) hamda shahar hokimligi axborot xizmati rahbariga:

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni ommaviy-axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi D.Raximova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi  TO‘RABOYEV MIRSHAKAR MUZAFFAROVICH

Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashining
2025-yil 11-noyabrdagi
VII-18-144-2-208-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Kogon shahridagi Geografik obyekt (qabriston)ga nom berish to‘g‘risida

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Qabriston	Abdulla Qodiriy mahallasi	Nomsiz (Birodarlik qabristonining bir qismi)	Behishtiyon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq